



O'ZBEK TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH HAMDA DARSLARDAGI JARAYONLARNI YANADA YAXSHILASH BO'YICHA METODLAR

Jumaboyeva Navro'za Ne'matjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

*Roman -german filologiyasi fakultetining 1-bosqich
talabasi*

navrozajumaboyeva@icloud.com

Ilmiy rahbar: Qalandarova Ro'za Fayzulla qizi

rozaxonqalandarova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola siz o'zbek tilini qaysi metodlar orqali qulay, oson va tez o'rganishni bilib olasiz. Shuningdek, o'zbek tilini chet el fuqarolari qanday usullar orqali o'rgana olishi mumkinligidan xabardor bo'lasiz.

Kalit so'zlar: metod, strategik, litsey, kollej, institute, texnika, texnologiya, filolog, professor, programma, omonim, sinonim, grammatika, televizor, smarttafel, kompyuter.

"O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash bizning hozirgi kundagi eng katta vazifamiz"

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Hozirgi kunda zamonaviy texnika va texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib bormoqda, bejizga "21 - asr texnologiyalari asri", deb bejizga aytishmagan-da. Shunday bir davrda biz ona tilimizga ham alohida e'tibor berib, uni shu texnologiyalar yordamida yanada rivojlantirib, takomillashtirishimiz kerak.

Zero til - ko'ngilning oltin kaliti, nutq vositasi bo'libgina qolmay davlatning timsoli va mulkidir. Til - millat ruhi. U xalqning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, tarixidir. Tilni rivojlantirish millat taraqqiyoti demakdir. Shuni aytish kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi ham mustaqilligimiz va yuksalishimiz yo'lida muhim qadam edi. Til - nafaqat millat yuzining bir bo'lagi, balki uning g'ururi, or-nomusi. Shuning uchun ham har birimiz o'z tilimizning ravnaqiga hissa qo'shishimiz lozim.

Biz qanday qilib o'z ona tilimizni yanada mukammallashtirishimiz va keng ommaga tatbiq qilishimiz, chet ellik o'rganuvchilar uchun qulay, tez va oson o'rgatishimiz mumkin?



1.0'z tilimizda boshqa mamlaktlar singari yangi-yangi kitoblar yaratishimiz lozim chunki hozirda mavjud bo'lgan kitoblarda ko'pgina kamchiliklar bor. Shuning uchun katta-katta, yosh-u qari filolog, tilshunos, professorlarni bir joyga jamlab, ularning yordamida chet ellik o'rganuvchilar uchun turli xil mukammal tarzdagi kitoblar yaratish lozim. Masalan, lug'at, omonim, sinonim, grammatika, to'rtta ko'nikma(o'qish, yozish, tinglash, gapiresh) jamlangan kitoblar joriy etish lozim.

2.0'zbek tilida dastur ishlab chiqish kerak, ya'ni "UZTILCHAT", "UZBEK" va boshqa kabi programmalar yaratish lozim. To'g'ri tilimizga doir programmalar mavjud, lekin yetarli emas, deb hisoblayman. Hozirgi kunda programmistlar soni kundan kunda ortib bormoqda. Ular yordamida shu kabi programmalar yaratsak, o'z ona tilimizga ulkan hissa qo'shgan sanalamiz. Bu programmalar nimalarni o'z ichiga olishi mumkin? Masalan, perevodchik programmalar quyidagicha bo'ladi:

- lug'at;
- sinonim;
- izlagan so'zning misollari;
- zamonlarda tuslanishi;
- shaxs-sonda tuslanishi;
- mayllarda tuslanishi.

Shuningdek, to'rt ko'nikma va grammatikadan iborat programmalar esa quyidagicha bo'ladi:

- o'qish;
- yozish;
- gapiresh;
- tinglash;
- grammatika.

Agarda o'z tilimizda shu kabi programmalar yaratsak, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

3.Tilimizni yangi o'rganayotganlar uchun turli xil imkoniyatlar yaratish kerak. Masalan, nemis tilidagi kabi chet davlatlarda o'z tilimizga ixtisoslashgan institutlar tashkil qilish, ularda har xil imkoniyatlar yaratish, hatto chet eldan turib, bizning tilimizni o'rganuvchilar uchun O'zbekistonga sayohatlar uyuştirish va boshqa kabi qiziqarli narsalar yaratishimiz lozim. Eng asosiysi – o'z tilimizni o'rganayotgan insonlarga qancha ko'p imkoniyat yaratib bersak, ular shuncha bizni qattiq hurmat qilishadi, e'zozlashadi hamda tilimizni yanada keng yoyilishiga o'z hissalarini qo'shishadi.

Biz qanday qilib dars jarayonidagi holatlarni yanada yaxshilashimiz va darsning sifatini oshirishimiz mumkin?

Birinchidan, o'z tilimizda maktab, litsey, kollej hamda oliy o'quv yurtidagi o'quvchilar uchun yagona, mukammal va har tomonlama qulay ona tili, adabiyot, matematika, kimyo, biologiya va boshqa kabi kitoblarini yaratishimiz kerak. Ikkinchidan, bu kitoblarni ta'sis etishdan oldin xalqdan so'rovnomaga o'tkazish lozim. Zero o'rganuvchilararning fikri doimo muhim va ular o'zlaridan kelib chiqqan holda eng



to'g'ri tanlovnii qilishadi. Uchinchidan, tilimizni yanada qiziqarliroq o'rganish maqsadida darslarda televizor, smarttafel, kompyuter kabi texnikalardan foydalanish kerak. Ular orqali o'quvchi darsni yanada osonroq tushunadi hamda birxillikdan uzoqda bo'ladi. To'rtinchidan, o'quv darslarida faqatgina darslik, zamonaviy texnologiyalar orqali darsni o'rganish emas, balki ularni birlashtirgan holda bir-biridan qiziqarli o'yinlar, maroqli suhbatlar orqali o'rganish lozim. Bu o'rganuvchida yanada darsga bo'lgan qiziqishni orttiradi. O'quvchi "yana shu darsmi" degan gapning o'rniga, bugun biz sevgan dars bor degani yaxshi emasmi? Beshinchidan, o'rganuvchining ham dars jarayonida fikr, takliflarini har doim inobatga olish kerak, chunki ularda zamon bilan hamnafaslik tuyg'usi kuchliroq, ular juda intiluvchan, harakatchan sanaladi. Masalan, o'quvchiga dars mobaynida biron narsa yoqmayaptimi, demak, o'sha narsani o'zgartirish kerak, negaki o'quvchiga yoqmayotgan narsani o'zgartirmasak, u darslardan umuman qoniqmay, zerikib boraveradi, natijada unda keljakka bo'lgan qiziqish so'nadi. Biz esa buning oldini doimo olishimiz lozim.

Xulosa sifatida shuni aytishim joizki, biz o'zligimiz sanalgan o'z tilimizga alohida katta e'tibor qaratishimiz lozim. Boshqa tillar kabi uning nufuzuni, keng yoyilishishini yanada kengaytirishimiz shart va zarur. Bizning tilimizni o'rganuvchilar soni ko'paymaguncha aslo harakat qilishdan to'xtamasligimiz kerak. Tilimizni qancha rivojlantirib, yuksaltirsak, shuncha dunyoda o'z o'rnimiz katta bo'ladi, obro'yimiz yanada ortadi, e'tibor kuchayadi. Bu esa har tamonlama foydali. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytgan gaplaridan ham tilimiz qanchalik boy ekanligini bilib olishimiz mumkin: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligidimiz timsoli, beba ho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga qulqoq tutsin".

FODALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

10-sinf ona tili darsligi

11-sinf ona tili darsligi;

9-sinf adabiyot darsligi.

Foydalanilgan saytlar ro'yxati:

@kun.uz;

@daryo.uz.